ilmiy-amaliy jurnal · ISSN 3093-8694

UDK 371.12:159.942

Markayeva Gulrux Sobirovna,
Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tayanch doktoranti

INGLIZ TILI O‘QITUVCHISINING IJTIMOIY-HISSIY KOMPETENSIYASINI BAHOLASH VOSITALARI

Annotatsiya. Maqolada ingliz tili o‘qituvchisining ijtimoiy-hissiy (SEL) kompetensiyasini baholashga mo‘ljallangan vositalar tizimi yoritilgan. Tadqiqotning maqsadi o‘zbek tilida ishlab chiqilgan, amaliyotda qo‘llash qulay va treningdan oldingi hamda keyingi o‘zgarishlarni aniqlashga mos baholash vositalarining ilmiy-metodik asoslarini bayon etishdan iborat. Tizim o‘z-o‘zini baholash so‘rovnomasi, yarim tuzilmali suhbat, dars kuzatuvi rubrikasi va portfolioni qamrab oladi. Shuningdek, vositalarni ishlab chiqish tamoyillari, anonim kod orqali natijalarni o‘zaro bog‘lash, validlik va ishonchlilikni tekshirish hamda ma’lumotlarni tahlil qilish usullari ko‘rib chiqiladi. Taklif etilgan yondashuv o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanish dasturlari samaradorligini baholashda qo‘llanishi mumkin.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy-hissiy kompetensiya, ingliz tili o‘qituvchisi, baholash vositalari, so‘rovnoma, Likert shkalasi, validlik, ishonchlilik, triangulyatsiya, kasbiy rivojlanish.

ИНСТРУМЕНТЫ ОЦЕНКИ СОЦИАЛЬНО-ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧИТЕЛЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация. В статье рассматривается система инструментов оценки социально-эмоциональной компетентности (SEL) учителя английского языка. Цель исследования заключается в обосновании методических подходов к использованию инструментов на узбекском языке, удобных для практического применения и позволяющих фиксировать изменения до и после тренинга. Система включает анкету самооценки, полуструктурированное интервью, рубрику наблюдения урока и портфолио. Рассматриваются принципы разработки инструментов, связывание результатов с помощью анонимного кода, методы проверки валидности и надёжности, а также способы анализа данных. Предложенный подход может использоваться для оценки эффективности программ профессионального развития учителей.

Ключевые слова: социально-эмоциональная компетентность, учитель английского языка, инструменты оценки, анкета, шкала Лайкерта, валидность, надёжность, триангуляция, профессиональное развитие.

INSTRUMENTS FOR ASSESSING THE SOCIAL-EMOTIONAL COMPETENCE OF ENGLISH LANGUAGE TEACHERS

Abstract. This article presents a system of instruments for assessing the social-emotional competence (SEL) of English language teachers. The study aims to outline the methodological foundations of Uzbek-language assessment instruments that are practical to use and suitable for measuring changes before and after training. The system comprises a self-assessment questionnaire, a semi-structured interview, a lesson observation rubric, and a portfolio. The article discusses the principles of instrument development, the use of

anonymous codes to link assessment results, methods for examining validity and reliability, and approaches to data analysis. The proposed framework can be used to evaluate the effectiveness of teachers' professional development programmes.

Keywords: social-emotional competence, English language teacher, assessment instruments, questionnaire, Likert scale, validity, reliability, triangulation, professional development.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi nafaqat fan bo'yicha bilim va pedagogik mahorat, balki hissiyotlarni boshqarish, o'quvchilar bilan samarali muloqot qilish va ijobiy psixologik muhit yaratish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Shu jihatdan ijtimoiy-hissiy ta'lim (Social and Emotional Learning — SEL) o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishida muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy-hissiy kompetensiya o'qituvchining o'z hissiyotlarini anglashi, stressli vaziyatlarni boshqarishi, o'quvchilarning ehtiyojlarini tushunishi, sog'lom muloqot muhitini shakllantirishi va etik qarorlar qabul qilish qobiliyatini qamrab oladi. Ingliz tili darslarida bu kompetensiyalar, ayniqsa, muhimdir, chunki o'quvchilar chet tilida muloqot qilish jarayonida xato qilishdan qo'rqishi, tortinishi yoki o'z fikrini ifodalashda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.

O'qituvchining ijtimoiy-hissiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun tegishli baholash vositalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish zarur. Baholash vositalari mavjud kompetensiyalar darajasini aniqlash, kasbiy rivojlanish ehtiyojlarini belgilash hamda trening samaradorligini kuzatish imkonini beradi. Bunda faqat o'z-o'zini baholashga tayanish yetarli emas, chunki ishtirokchilarning javoblari subyektiv qarashlar va ijtimoiy jihatdan ma'qul ko'rinishga intilish ta'sirida shakllanishi mumkin.

O'zbekistonda o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini o'rganishga oid tadqiqotlar mavjud bo'lsa-da, ingliz tili o'qituvchisining ijtimoiy-hissiy kompetensiyasini treningdan oldin va keyin baholashga mo'ljallangan, o'zbek tilidagi o'zaro bog'langan vositalar tizimini takomillashtirish dolzarbdir.

Tadqiqotning maqsadi — ingliz tili o'qituvchisining ijtimoiy-hissiy kompetensiyasini baholash vositalari tizimini taqdim etish va uning ilmiy-metodik asoslarini yoritish.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

ijtimoiy-hissiy kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlarini aniqlash;

qisqa o'z-o'zini baholash so'rovnomasi va sifat baholash vositalarini ishlab chiqish tamoyillarini bayon etish;

treningdan oldingi va keyingi natijalarni taqqoslash mexanizmini asoslash;

baholash vositalarining validligi va ishonchliligini tekshirish usullarini belgilash.

MAVZU BO‘YICHA ADABIYOTLAR TAHLILI

O‘qituvchilarning ijtimoiy-hissiy kompetensiyasini o‘rganishda xalqaro ilmiy adabiyotlar muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Brackett va hamkasblari o‘qituvchilarning ijtimoiy-hissiy ta’limga oid qarashlarini baholash vositalarini ishlab chiqib, mazkur yo‘nalishdagi o‘lchov vositalarini takomillashtirishga hissa qo‘shganlar [1, 219–236-b.]. Biroq o‘qituvchilarning SEL ga munosabatini o‘lchash bilan ularning kundalik pedagogik faoliyatda namoyon bo‘ladigan ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarini baholash bir xil vazifa emas.

CASEL tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan SEL doirasi beshta asosiy kompetensiyani qamrab oladi: o‘zini anglash, o‘zini boshqarish, ijtimoiy anglash, munosabatlarni boshqarish va mas’uliyatli qaror qabul qilish [3]. Ushbu yondashuv o‘qituvchilarning ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarini tizimlashtirish uchun nazariy asos bo‘la oladi. Mazkur tadqiqotda ushbu kompetensiyalar ingliz tili o‘qituvchisining kasbiy faoliyatiga moslashtirilib, beshta yo‘nalish asosida talqin qilinadi.

Baholash vositalarini ishlab chiqishda metodologik talablar ham muhim o‘rin tutadi. Likert shkalasi munosabat va o‘z-o‘zini baholash ko‘rsatkichlarini o‘lchashda keng qo‘llanadigan usullardan biridir [8, 5–55-b.]. Lawshe mazmuniy validlikni mutaxassislar bahosi orqali aniqlash yondashuvini taklif etgan [7, 563–575-b.]. Cronbach esa test bandlarining ichki izchilligini baholashga xizmat qiluvchi alfa koeffitsiyentini asoslab bergan [5, 297–334-b.]. Shu bilan birga, Taber ta’kidlaganidek, Cronbach alfa ko‘rsatkichi vosita sifatining yagona mezoni sifatida talqin qilinmasligi lozim [9, 1273–1296-b.].

Sifat ma’lumotlarini tahlil qilishda Braun va Clarke tomonidan tavsiflangan tematik tahlil usuli ishtirokchilarning tajribasi, fikrlari va kuzatilgan o‘zgarishlarni tizimli o‘rganish imkonini beradi [2, 77–101-b.]. Bu usul suhbatlar va portfolio materiallarini tahlil qilish uchun mos keladi.

O‘zbekiston kontekstida Kulmatov ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish masalalarini o‘rgangan [6, 159–166-b.]. Turdyeva rus tili o‘qituvchilarining ijtimoiy-hissiy ta’limga munosabatini kasbiy rivojlanish doirasida tahlil qilgan [10, 1–8-b.]. Umarov esa oliy ta’lim o‘qituvchilarida hissiy intellekt, kasbiy zo‘riqish va stressga chidamlilik o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rgangan [11, 207–210-b.].

Tahlil qilingan manbalar ijtimoiy-hissiy kompetensiyani baholashda miqdoriy va sifat usullarini birgalikda qo‘llash muhimligini ko‘rsatadi. Shu asosda mazkur maqolada ingliz tili o‘qituvchilari uchun qisqa so‘rovnoma, suhbat, dars kuzatuvi va portfolioni birlashtiruvchi tizim taklif etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ingliz tili o‘qituvchilarining ijtimoiy-hissiy kompetensiyasini baholash vositalarini ishlab chiqish va ularning metodik asoslarini yoritishga yo‘naltirilgan. Vositalar to‘rt bosqichda shakllantirilgan.

Birinchi bosqichda CASEL doirasi va ilmiy adabiyotlar asosida beshta kompetensiya yo‘nalishi belgilandi:

1. O‘zini anglash (K1) — o‘z hissiy holatini aniqlash, nomlash va uning pedagogik faoliyatga ta’sirini tushunish.

2. Stressni boshqarish (K2) — qiyin vaziyatlarda hissiy barqarorlikni saqlash va o‘zini boshqarish.

3. O‘quvchi ehtiyojini sezish (K3) — o‘quvchilarning hissiy holati va individual ehtiyojlarini anglash.

4. Muloqot muhitini yaratish (K4) — ishonchli, xavfsiz va qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim muhitini shakllantirish.

5. Etik qarorlar qabul qilish (K5) — adolat, mas’uliyat va maxfiylik tamoyillariga rioya qilish.

Ikkinchi bosqichda ilmiy manbalar va respublika miqyosidagi so‘rov materiallari (n = 1 898) asosida so‘rovnoma bandlari ishlab chiqildi. Uchinchi bosqichda har bir kompetensiyani uchta band orqali baholash tamoyili tanlanib, jami 15 banddan iborat qisqa so‘rovnoma shakllantirildi. To‘rtinchi bosqichda miqdoriy natijalarni to‘ldirish uchun yarim tuzilmali suhbat, dars kuzatuv rubrikasi va portfolio ishlab chiqildi.

So‘rovnoma bandlari besh balli Likert shkalasi asosida baholanadi. Ishtirokchilar so‘nggi bir oy ichidagi faoliyatini hisobga olib, javoblarni 1 («umuman mos emas») dan 5 («doim») gacha bo‘lgan shkala bo‘yicha belgilaydilar. Har bir kompetensiya bo‘yicha ball uchta bandning o‘rtacha qiymati orqali aniqlanadi. Umumiy ball 15 bandning yig‘indisi sifatida hisoblanib, 15 dan 75 gacha qiymatni tashkil etadi. Ushbu ko‘rsatkichlar dastlabki baholash tizimining hisoblash qoidalarini ifodalaydi; kompetensiya darajalarini tasniflash uchun alohida empirik mezonlar ishlab chiqilishi lozim.

Treningdan oldingi va keyingi javoblarni o‘zaro bog‘lash uchun anonim koddan foydalanish ko‘zda tutiladi. Kod ishtirokchining shaxsini bevosita ko‘rsatmaydigan va qayta aniqlash xavfini kamaytiradigan tartibda shakllantirilishi kerak. Ism bosh harflari va tug‘ilgan sana kabi shaxsiy ma’lumotlardan foydalanish o‘rniga, ishtirokchiga tasodifiy identifikator berish maxfiylikni yaxshiroq ta’minlaydi.

Yarim tuzilmali suhbat treningdan keyin hamda 16-haftalik kuzatuv bosqichida o‘tkaziladi. Unda o‘qituvchining qaysi usullarni amaliyotga tatbiq etgani, qanday o‘zgarishlarni sezgani va qanday qiyinchiliklarga duch kelgani aniqlanadi. Javoblar tematik tahlil asosida kodlanadi.

Dars kuzatuv rubrikasi tashqaridan kuzatiladigan xatti-harakatlarni to‘rt darajali shkala asosida baholashga mo‘ljallangan. Kuzatuv indikatorlari dars boshidagi hissiy muhit, qiyin vaziyatda o‘zini tutish, o‘quvchi ehtiyojini sezish, xatolarga munosabat hamda adolatli qaror qabul qilishni qamrab oladi. Rubrika ichki hissiy

holatni bevosita o‘lchamaydi, balki uning pedagogik faoliyatda namoyon bo‘ladigan jihatlarini qayd etadi.

Portfolio «ichki ob-havo» kundaligi, o‘qituvchi gerbi, empatiya xaritasi, «3–2–1» refleksiyalari va sakkiz hamda 16 haftalik faoliyat hisobotlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu materiallar o‘qituvchining rivojlanish jarayonini va qo‘llangan usullarning amaliy mazmunini tahlil qilishga xizmat qiladi.

Baholash vositalarining sifatini aniqlash uchun mazmuniy validlik, ichki izchillik va konvergent validlikni tekshirish nazarda tutiladi. Mazmuniy validlik tegishli mutaxassislarning bandlarga bergan baholari asosida o‘rganiladi. Ichki izchillik Cronbach alfa koeffitsiyenti va bandlararo o‘rtacha korrelyatsiya orqali tekshiriladi. Konvergent validlik esa so‘rovnoma natijalarini dars kuzatuvi ko‘rsatkichlari bilan taqqoslash orqali baholanadi.

Trening samaradorligini tahlil qilishda, ma’lumotlarning taqsimoti va tadqiqot dizayniga qarab, juft t-mezon, Welch t-mezoni, Wilcoxon va Mann–Whitney mezonlaridan foydalanish mumkin. Natijalar bilan birga ta’sir kattaligi ham hisoblanishi lozim. Ushbu statistik usullar faqat tegishli ma’lumotlar mavjud bo‘lganda qo‘llanadi.

NATIJALAR

Tadqiqot doirasida ingliz tili o‘qituvchisining ijtimoiy-hissiy kompetensiyasini baholash uchun o‘zaro to‘ldiruvchi to‘rtta vositadan iborat tizim shakllantirildi. Tizimning asosiy xususiyati miqdoriy baholashni sifat ma’lumotlari va dars jarayonida kuzatiladigan xatti-harakatlar bilan birlashtirishdan iborat.

Birinchi vosita — 15 bandli o‘z-o‘zini baholash so‘rovnomasi. U o‘qituvchining o‘zini anglash, stressni boshqarish, o‘quvchi ehtiyojini sezish, muloqot muhitini yaratish va etik qarorlar qabul qilish kompetensiyalarini baholashga mo‘ljallangan. Qisqa shakl treningdan oldin va keyin qo‘llashni yengillashtiradi.

Ikkinchi vosita — yarim tuzilmali suhbat. U so‘rovnoma natijalarini chuqurroq tushunish, o‘qituvchining tajribasini aniqlash va kuzatilgan o‘zgarishlarning sabablarini o‘rganish imkonini beradi.

Uchinchi vosita — dars kuzatuv rubrikasi. Uning yordamida o‘qituvchining hissiy muhitni tashkil etishi, stressli vaziyatlarga munosabati, o‘quvchilarning ehtiyojlarini hisobga olishi va adolatli qarorlar qabul qilishi kuzatiladi.

To‘rtinchi vosita — portfolio. U o‘qituvchining refleksiyalari, amaliy mashqlari va kasbiy rivojlanish bo‘yicha hisobotlarini jamlab, o‘zgarishlarning vaqt davomida qanday shakllanishini tahlil qilishga yordam beradi.

Vositalarning birgalikda qo‘llanishi triangulyatsiya imkonini yaratadi. Masalan, so‘rovnomada stressni boshqarish bo‘yicha ijobiy o‘zgarish aniqlansa, dars kuzatuvi va suhbat orqali bu o‘zgarishning amaliy faoliyatda namoyon bo‘lishi tekshirilishi mumkin. Turli manbalardan olingan ma’lumotlarning mos kelishi yoki farqlanishi natijalarni chuqurroq talqin qilishga yordam beradi.

Vositalarning validligi va ishonchliligini tekshirish uchun mutaxassislar bahosi, mazmuniy validlik ko‘rsatkichlari, Cronbach alfa, bandlararo korrelyatsiya va kuzatuv natijalari bilan taqqoslash usullari belgilandi. Biroq ushbu ko‘rsatkichlarning haqiqiy qiymatlari empirik ma’lumotlar asosida hisoblanishi kerak. Shu sababli vositalarning psixometrik xususiyatlari tasdiqlangan deb emas, balki keyingi tekshiruvni talab qiladigan jihatlar sifatida qaraladi.

MUHOKAMA

Taklif etilgan baholash tizimi ingliz tili o‘qituvchisining ijtimoiy-hissiy kompetensiyasini birgina so‘rovnoma bilan cheklamasdan, uning kasbiy faoliyatdagi namoyon bo‘lishini turli manbalar orqali o‘rganishga imkon beradi. Bu yondashuv CASEL doirasidagi kompetensiyalarni amaliy pedagogik vaziyatlarga moslashtirish bilan ahamiyatlidir.

O‘z-o‘zini baholash so‘rovnomasi o‘qituvchining o‘z faoliyatiga munosabatini aniqlash uchun qulay, biroq uning natijalari subyektiv omillardan ta’sirlanishi mumkin. Treningdan keyin ishtirokchi o‘z kompetensiyalarini chuqurroq anglay boshlashi natijasida baholash mezonlari o‘zgarishi ham ehtimoldan xoli emas. Shu bois ballardagi o‘zgarishni har doim ham kompetensiyaning bevosita o‘sishi sifatida talqin qilish mumkin emas.

Dars kuzatuvi rubrikasi o‘z-o‘zini baholashni tashqi kuzatuv bilan to‘ldiradi. Biroq kuzatuv natijalariga kuzatuvchining subyektivligi, dars sharoiti va baholash mezonlarining aniqligi ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli kuzatuvchilarni oldindan tayyorlash, indikatorlarni aniq belgilash va imkon qadar bir nechta kuzatuvchining baholarini taqqoslash maqsadga muvofiq.

Suhbat va portfolio esa o‘zgarishlarning mazmunini ochishga yordam beradi. Ular o‘qituvchining qaysi usullarni o‘zlashtirgani, qanday to‘siqlarga duch kelgani va yangi yondashuvlarni dars amaliyotiga qay darajada tatbiq etganini ko‘rsatishi mumkin. Biroq sifat ma’lumotlarini tahlil qilishda izchil kodlash va aniq mezonlardan foydalanish zarur.

Tizimning yana bir muhim jihati — treningdan oldingi va keyingi natijalarni o‘zaro taqqoslash imkoniyatidir. Bunda anonim kodlardan foydalanish maxfiylikni ta’minlashga yordam beradi. Ishtirokchilar haqidagi ma’lumotlarni himoya qilish, baholash natijalaridan jazolash yoki ma’muriy bosim vositasi sifatida foydalanmaslik va tadqiqotda ixtiyoriy ishtirokni ta’minlash muhim etik talablar hisoblanadi.

Taklif etilgan vositalar tizimi dastlabki metodik yechim sifatida qaralishi lozim. Uning amaliy samaradorligini aniqlash uchun yetarli hajmdagi tanlanmada empirik sinov o‘tkazish, faktor tuzilmasini tekshirish, ishonchlilik ko‘rsatkichlarini hisoblash va baholash mezonlarini aniqlashtirish zarur. Shuningdek, boshqa fan o‘qituvchilari uchun qo‘llashdan oldin vositalarni tegishli kasbiy kontekstga moslashtirish talab etiladi.

XULOSA

Maqolada ingliz tili o‘qituvchisining ijtimoiy-hissiy (SEL) kompetensiyasini baholashga mo‘ljallangan to‘rt komponentli vositalar tizimi taqdim etildi. Tizim beshta kompetensiya (K1–K5) bo‘yicha 15 bandli qisqa so‘rovnoma, yarim tuzilmali suhbat, dars kuzatuv rubrikasi va portfoliodan iborat. Mazkur vositalar o‘qituvchilarning ijtimoiy-hissiy kompetensiyalaridagi o‘zgarishlarni treningdan oldin va keyin aniqlash imkonini beradi.

Tizimning muhim jihati o‘z-o‘zini baholash natijalarini kuzatuv va sifat ma’lumotlari bilan taqqoslash, ya’ni triangulyatsiya qilishga asoslanganidir. Bunday yondashuv o‘qituvchining o‘z kompetensiyalariga bergan bahosini real dars jarayonida namoyon bo‘ladigan xatti-harakatlar bilan solishtirishga yordam beradi. Natijada ijtimoiy-hissiy kompetensiyalardagi o‘zgarishlarni yanada to‘liq va xolis baholash imkoniyati yaratiladi.

Taklif etilgan vositalarning ilmiy asoslanganligini ta’minlash uchun ularning validligi va ishonchliligini empirik tekshirish muhimdir. Bunda mutaxassislar bahosi, mazmuniy validlik ko‘rsatkichlari, Kronbax alfa koeffitsiyenti va kuzatuv natijalari bilan taqqoslash usullaridan foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, olingan natijalarni statistik tahlil qilish orqali trening dasturlarining samaradorligini baholash mumkin.

Kelgusida mazkur baholash tizimini kengroq tanlamada sinovdan o‘tkazish, so‘rovnomaning psixometrik xususiyatlarini chuqur o‘rganish va natijalarni turli hududlardagi ingliz tili o‘qituvchilari misolida taqqoslash maqsadga muvofiq. Bu jarayonda o‘qituvchilarning kasbiy tajribasi, ta’lim muhiti va individual xususiyatlarini ham hisobga olish baholash natijalarining ishonchliligini oshirishi mumkin.

Umuman olganda, taklif etilgan vositalar tizimi ingliz tili o‘qituvchilarining ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarini baholash va kasbiy rivojlanish dasturlarini takomillashtirish uchun amaliy ahamiyatga ega. Uni ilmiy asosda sinovdan o‘tkazish va takomillashtirish o‘qituvchilarning o‘zini anglash, stressni boshqarish, empatiya, samarali muloqot hamda etik qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Brackett M. A., Reyes M. R., Rivers S. E., Elbertson N. A., Salovey P. Assessing teachers’ beliefs about social and emotional learning // Journal of Psychoeducational Assessment. – 2012. – Vol. 30, No. 3. – P. 219–236. – DOI: https://doi.org/10.1177/0734282911424879.

2. Braun V., Clarke V. Using thematic analysis in psychology // Qualitative Research in Psychology. – 2006. – Vol. 3, No. 2. – P. 77–101. – DOI: https://doi.org/10.1191/1478088706qp063oa.

3. CASEL. CASEL’s SEL framework: What are the core competence areas and where are they promoted? – Chicago: Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning, 2020. –

URL: https://casel.org/fundamentals-of-sel/what-is-the-casel-framework/ (murojaat sanasi: 2026-yil oktabr).

4. Cohen J. Statistical Power Analysis for the Behavioral Sciences. 2nd ed. – Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1988.

5. Cronbach L. J. Coefficient alpha and the internal structure of tests // Psychometrika. – 1951. – Vol. 16, No. 3. – P. 297–334. – DOI: https://doi.org/10.1007/BF02310555.

6. Kulmatov B. G. Aspects of the formation and development of professional competence of EFL teachers in Uzbekistan // Xorijiy tillar. – 2018. – No. 2(21). – P. 159–166.

7. Lawshe C. H. A quantitative approach to content validity // Personnel Psychology. – 1975. – Vol. 28, No. 4. – P. 563–575. – DOI: https://doi.org/10.1111/j.1744-6570.1975.tb01393.x.

8. Likert R. A technique for the measurement of attitudes // Archives of Psychology. – 1932. – Vol. 22, No. 140. – P. 5–55.

9. Taber K. S. The use of Cronbach's alpha when developing and reporting research instruments in science education // Research in Science Education. – 2018. – Vol. 48, No. 6. – P. 1273–1296. – DOI: https://doi.org/10.1007/s11165-016-9602-2.

10. Turdyeva M. R. Роль социально-эмоционального обучения в профессиональной деятельности учителей русского языка Республики Узбекистан // Maktab ta'limi. – 2026. – Vol. 6, No. 1. – P. 1–8. – DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.18465576.

11. Umarov B. M. Psychological interrelation of emotional intelligence, burnout and stress tolerance in higher education teachers // European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2024. – Vol. 4, No. 12. – P. 207–210.